

## **ONA TILI DARSLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINING O'QITISH METODIKASI**

**Sayfiddinova Gulsevar**

*ToshDO'TAUning 3-kurs talabasi*

[gulsevarsayfiddinova25@gmail.com](mailto:gulsevarsayfiddinova25@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada fe'l so'z turkumining o'ziga xos grammatik xususiyatlari, ularni o'rGANISHNING ahamiyati, o'quvchilarga samarali o'rgatish bosqichlari hamda metodik yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Fe'lning zamon, mayl, nisbat va shaxs-son kategoriyalarini o'rgatishda qo'llaniladigan usullar yoritiladi.

**Abstract:** The article discusses the specific grammatical features of the verb word class, the importance of studying them, the stages of effective teaching to students, and methodological approaches. The methods used in teaching the tense, mood, proportion, and person-number categories of the verb are highlighted.

**Абстрактный:** В статье рассматриваются грамматические особенности глагольных оборотов, важность их изучения, этапы эффективного обучения студентов, методические подходы. Рассматриваются методы, используемые для обучения категориям времени, наклонения, вида и лица-числа глагола.

**Kalit so'zlar:** fe'l so'z turkumi, zamon, mayl, nisbat, shaxs-son, o'qitish metodikasi, ona tili, dars samaradorligi, interaktiv metodlar.

**Keywords:** verb phrase, tense, case, proportion, person-number, teaching methodology, native language, lesson effectiveness, interactive methods.

**Ключевые слова:** часть речи глагола, время, наклонение, пропорция, лицо-число, методика обучения, родной язык, эффективность урока, интерактивные методы.

### **Kirish**

O‘zbek tili leksik va grammatic jihatdan boy tillardan hisoblanadi. Tilimizdag‘i so‘z turkumlari ichida fe‘l alohida o‘rin egallaydi, chunki u harakat, holat, jarayon va voqelikni ifodalovchi asosiy so‘z turkumidir. Fe‘lning grammatic xususiyatlarini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, to‘g‘ri nutq tuzish va grammatic bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi.

6-sinfda “Fe‘l” so‘z turkumi ta’limi uchun qariyb 50 soatdan ortiqroq vaqt ajratilgan. Bunda o‘quvchilar, asosan, “Fe‘l turkumida shakl yasalishi”, “Fe‘lning tarz shakllari”, “Fe‘lning vazifa (xoslovchi) shakllari”, “Harakat nomi shakllari”, “Sifatdosh shakllari”, “Ravishdosh shakllari”, “Fe‘lning nisbat shakllari: aniq nisbat shakli; o‘zlik nisbat shakli; orttirma nisbat shakli; majhul nisbat shakli; birgalik nisbat shakli”; “Fe‘lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari”, “Fe‘llarda mayl shakllari: buyruq-istik mayli, shart mayli shakllari, maqsad mayli shakli, xabar mayli shakli”, “Mayl shakllarining zamon ma’nolari”; “Fe‘lda zamon shakllari”; “Fe‘lda zamon shakllarining ko‘chma qo‘llanishi”; “Fe‘lda shaxsson shakllari” singari mavzular bilan tanishadilar<sup>1</sup>.

Mazkur mavzularni o‘rganishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘z zahirasini fe’llar bilan boyitish, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirishdan iboratdir<sup>2</sup>.

Fe‘l quyidagi grammatic kategoriyalarga ega:

Zamon (hozirgi, o‘tgan, kelasi);

Mayl (buyruq-istik, shart, faraz, ravishdosh);

Nisbat (qo‘srimcha, vositali, o‘zaro);

Shaxs-son (1-, 2-, 3-shaxs birlik va ko‘plik shakllari);

Sof fe‘l, yordamchi fe‘l, murakkab fe‘l shakllari.

<sup>1</sup> D.N. Yuldasheva. “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadreddin Salim Buxoriy” Durdonashriyoti, 2021. – 424 b.279-bet.

<sup>2</sup> D.N. Yuldasheva. “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadreddin Salim Buxoriy” Durdonashriyoti, 2021. – 424 b.279-bet.

## **O'rgatish metodikasi**

### **1. Nazariy tushuncha berish**

Fe'l so'z turkumi haqida umumiy tushuncha beriladi. U qanday savollarga javob beradi? Qanday o'zgaradi? Boshqa so'z turkumlaridan farqi nima? Mazkur bosqichda o'qituvchi misollar asosida fe'lni boshqa so'z turkumlaridan farqlashga o'rgatadi, jadval, sxema va interaktiv taqdimotlardan foydalanadi.

### **2. Kategoriyalarni alohida o'rganish**

Har bir grammatik kategoriya (zamon, mayl, nisbat, shaxs-son) alohida dars mavzusi sifatida o'tiladi.

Masalan: Zamonlar darsi: fe'l shakllarining zamonga bog'liq o'zgarishi; keladi, keldi, kelmoqda.

Mayllar darsi: istak, shart va buyruq ma'nolarining shakllanishi; kelginki, kelsa, keling.

Nisbat darsi: harakatning bajaruvchisi va obyekt o'rtaсидаги munosabatlar; yuvindi, yuvdirildi.

### **3. Amaliy mashqlar bilan mustahkamlash**

Gapdan fe'lni topish;

Fe'lning zamon, shaxs va maylini aniqlash;

So'zdan fe'l yasash (masalan: pok – poklamoq);

Matn tuzishda to'g'ri fe'l ishlatalish.

### **4. Ijodiy va interaktiv topshiriqlar**

"Zamon o'yini": fe'l hozirgi, o'tgan yoki kelasi zamonda beriladi, o'quvchi esa unga mos gap tuzadi.

"Kim tez?": berilgan fe'lning barcha shaxs-shakllarini yozish.

Rolli o'yinlar: o'quvchilar fe'l shakllarini harakat bilan ifodalaydi.

### **"Zamonlar osha" metodi**

Guruhgaga bo'linadi va har bir guruhgaga "Kecha", "Bugun", "Ertaga" deb nom beriladi. Guruh a'zolari o'z nomidan kelib chiqib kechagi, bugungi va ertaga qilishi kerak bo'lgan ishlar ro'yxatini tuzishadi. Ma'lum vaqt ichida eng ko'p yozgan guruhgaga a'lo baholar qo'yiladi.

**"Xatoni top"** metodidan ona tili darslarida foydalanish. Masalan ona tili darsida "Fe'lning mayl shakllar" mavzusi o'tilgan bo'lsa, bu mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarga matndan xatolarni toping deb topshiriq beriladi. O'quvchilar bu vazifani individual, yoki jamoaviy hamkorlikda guruhda bajarishlari mumkin.

Darsning samaradorligini oshiruvchi usullar

Multimedia vositalari: slaydlar, video lavhalar, animatsiyalar.

Klaster va grafik organayzerlar orqali fe'l tahlili.

Baholashda rubriklar, mini-testlar va o'zaro tahlil qilish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. D.N. Yuldasheva. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi". – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2021. – 424 b.
2. B.To'xliyev va boshq. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
3. Interfaol ta'lif metodlarining psixologik asoslari uslubiy qo'llanma. SamDU nashr-2015 A.Saidov
4. [www.Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)